



Investitsiya loyihalarini boshqarish samaradorligining nazariy asoslari

Allaberganov Sirojali Sahatovich

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etish, investitsion loyihalarni samarali boshqarishda ham ilm-fan yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda kapitalni boshqarish, investitsiyalar va investitsion loyihalar bo'yicha ko'plab konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularni tahlil qilish orqali iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ilmiy takliflar berish imkoniyati paydo bo'ladi. Buning uchun ilmiy tadqiqotlarimizda investitsion sohaga bag'ishlangan ilmiy ishlar va ularda aks ettirilgan g'oyalarni tahlil qilishimiz, milliy iqtisodiyotimizga foydali jihatlarini transformatsiya qilish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Avvalambor investitsiyaning iqtisodiy mohiyati, uning paydo bo'lishi va o'rganilishini ilmiy nuqtayi nazaridan muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Amerikalik iqtisodchi Gerbert Saymon tomonidan taklif etilgan "Mulkdorlar iqtisodiy manfaatlarining ustuvorligi" konsepsiyasi kishilarning iqtisodiy xulq-atvorini o'rganish orqali mulkdorlar manfaatlarini hisobga olish bo'yicha ilmiy qarashlarni qamrab olgan⁷. Ushbu konsepsiyasining mohiyati mulkdorlar qiziqishlarini hisobga olgan holda, korxonaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilganligidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish, ularning xatti-harakatlarini boshqarish orqali investitsion loyiha asosida tashkil etayotgan korxonalarning ham bozor qiymatini maksimal darajada oshirishga sharoit yaratadi.

Zamonaviy investitsion konsepsiyalar ichida Chikago iqtisodiyot maktabi olimi Frenk Naytning "Rentabellik va risk o'rtasidagi bog'liqlik" konsepsiyasi hisoblanadi⁸. Ushbu konsepsiya investitsion faoliyatda risklarni baholash orqali daromadlarni rejalashtirish mumkinligini va optimal investitsion qarorlar qabul qilish mumkinligini isbotlab bergan. Yurtimizda amalga oshiriladigan investitsion loyihalarni rejalashtirishda risklarni to'g'ri baholash ularning zararli ta'sirini kamaytirishga va foydani ko'paytirish uchun imkoniyatni oshirishga olib keladi.

1958-yilda Franko Modilyani va Merton Millerlar tomonidan taklif etilgan "Kapital tarkibi konsepsiya"si korxona tomonidan o'z kapitali va qarz kapitalining nisbati uning bozor qiymati ko'rsatkichiga ta'sir qilish mexanizmiga asoslanadi⁹. Ushbu konsepsiya ham nafaqat faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar balki yangi tashkil etilayotgan investitsion loyilar bo'yicha tashkil etilayotgan korxonalarning bozor qiymatini oshirishda muhim

⁷ Саймон Г. А. Теория принятия решений в экономической теории и в науке о поведении // Вехи экономической мысли Т.2. Теория фирмы / Под ред. В. М. Гальперина — СПб.: Экономическая школа, 2000 — С. 54—72. — 534 с. — ISBN 5-900428-49-4 (англ. Theories of decision-making in economics and behavioral science, 1959)

⁸ Frank H. Knight, PhD, Risk, uncertainty and profit, Reprints of economic classics, New York 1964 445 p.

⁹ Modigliani, F., Miller, M. (1958), The cost of capital, corporation finance and the theory of investment, The American Economic Review, 3(48) (1958) 261–297.



ahamiyat kasb etadigan ilmiy g'oya hisoblanadi. Ushbu konsepsiyani tahlil qilish orqali investitsion loyihalarda nafaqat o'z kapitali, balki qarz kapitalidan samarali foydalanish bo'yicha muhim tahlillar o'tkazish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga erishish mumkin.

Fisherning ilmiy g'oyalarani Djon Xirshleyfer takomillashtirgan. U o'zining "Optimal investitsiya qarorlari nazariyasi"¹⁰ da pul mablag'larini diskontlash masalalari va ular orqali pulning "hozirgi" va "kelgusidagi" qiymatlari o'rtasidagi farqni tushuntirib bergan. Aytib pul o'tish lozimki, investitsion loyihalarni ishlab chiqish, moliyalashtirish va ularni boshqarishda pul oqimlarini diskontlangan qiymat orqali hisoblash natijada optimal yechim topish yanada osonlashadi.

Investitsiya tushunchasi bugungi kunda juda ko'p sohalarni o'z ichiga qamrab olgan tushuncha bo'lib, investitsion loyihaning samaradorligini baholashdan avval uning iqtisodiy mazmuni bo'yicha iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning qarashlari va fikrlarini tahlil qilsa, muammoning yechimini topishda keng dunyoqarashga ega bo'lamiz.

Investitsiya faoliyatini boshqarishda loyihani moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotchi D.A.Ismailov tadqiqot olib borgan¹¹. Ushbu tadqiqotchi o'z ilmiy izlanishlarida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning nazariy asoslarini keng tahlil qilib, investitsiya atamasi va uning ma'nosini tahlil qilishda ko'pla bilmiy izlanuvchilarning ishlarini tahlil qilgan. Shuningdek tadqiqotchi o'z ilmiy ishida "markazlashmagan investitsiyalarning respublikamiz asosiy kapitaliga ta'siri juda yuqori hisoblanadi"¹² degan xulosaga keladi. Tadqiqotchi ushbu xulosaga faqatgina korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash va multikollinearlik muammosini juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi yordamida aniqlash orqali ekonometrik model ishlab chiqqan. Fikrimizcha, korrelyatsion tahlil qilish faqatgina ikkita omil o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berishidan kelib chiqib xulosa chiqarish yetari bo'lmaydi. Bunda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 99,9 foizini tmijorat banklari va markazlashmagan investitsiyalar dinamikasi bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi. Tadqiqot ishida keltirilgan ekonometrik modellarni iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarida investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishni takomillashtirishini aniq ko'rsatish ilmiy ishning jozibardorligini yanada oshirishi mumkin bo'lardi.

A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrni: "Investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa

¹⁰ J. Hirshleifer, On the Theory of Optimal Investment Decision, Journal of Political Economy, Vol. 66, No. 4 (Aug., 1958), pp. 329-352 The University of Chicago Press

¹¹ Ismailov D.A. "Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish" nomli dissertatsiya ishi. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42798>

¹² http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/13700/mod_resource/content/0/investitsiya_faoliyatini_moliyaviy_boshqarish_usullarini_takomillashtirish.pdf 20-bet.



qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar¹³” bildirishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda olib borilayotgan ko'plab ilmiy izlanishlar yangi imkoniyatlar bilan birgalikda yangi risklar paydo bo'layotganligini ko'rsatmoqda. Natijada investitsion loyihalarni boshqarishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishga zarurat tug'ilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саймон Г. А. Теория принятия решений в экономической теории и в науке о поведении // Вехи экономической мысли Т.2. Теория фирмы / Под ред. В. М. Гальперина — СПб.: Экономическая школа, 2000 — С. 54—72. — 534 с. — ISBN 5-900428-49-4 (англ. Theories of decision-making in economics and behavioral science, 1959)
2. Frank H. Knight, PhD, Risk, uncertainty and profit, Reprints of economic classics, New York 1964 445 p.
3. Modigliani, F., Miller, M. (1958), The cost of capital, corporation finance and the theory of investment, The American Economic Review, 3(48) (1958) 261–297.
4. J. Hirshleifer, On the Theory of Optimal Investment Decision, Journal of Political Economy, Vol. 66, No. 4 (Aug., 1958), pp. 329-352 The University of Chicago Press;
5. Ismailov D.A. “Investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish usullarini takomillashtirish” nomli dissertatsiya ishi. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42798>;
6. http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/13700/mod_resource/content/0/investitsiya_faoliyatini_moliyaviy_boshqarish_usullarini_takomillashtirish.pdf 20-bet;
7. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: Moliya 2

¹³ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: Moliya 2010 – 303b.